

O'zbekistonda fond bozori yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini investitsiyalarga yo'naltiradi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga transformasiyalanishiga imkoniyat yaratadi.

Moliya bozorining investitsion faolligini oshirish, nafaqat, aktivlar qiymati va savdo hajmlarining o'sishi bilan birga olib borilishi kerak, balki qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari faoliyati ta'minlanishi zarur. Moliya bozorini rivojlantirish moliyaviy resurslarni faollashtirishga, ulardan oqilona foydalanishga va iqtisodiy rivojlanishni bir muncha tezlashtirish uchun qayta taqsimlashga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISHDAGI ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Mirzayev Shoxrux

Loyihalar va import kontraktlarni kompleks ekspertiza qilish Markazi

Annotatsiya. *Mazkur tezisda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan mega investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelayotgan asosiy muammolar hamda ularni moliyalashtirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Xususan, yirik kapital sig'imli sanoat loyihalarini moliyalashtirish manbalari, moliyaviy risklar va ularni boshqarish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kapital bozorini rivojlantirish, infratuzilmaviy obligatsiyalar, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari hamda ESG tamoyillariga asoslangan investitsiya instrumentlaridan foydalanish istiqbollari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *mega investitsiya loyihalari, moliyalashtirish mexanizmlari, investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, kapital bozori, ESG moliyalashtirish.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-sonli "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha choratadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan "O'zbekiston - 2030" strategiyasini zamonaviy global tendensiyalar, iqtisodiy transformatsiya jarayonlari hamda yangi geoiqtisodiy chaqiriqlarga mos ravishda takomillashtirish vazifalari belgilab berildi.

Mazkur strategiya doirasida mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, sanoatni chuqur modernizatsiya qilish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan. Shu bilan birga, mahalliy xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Strategiya doirasida qator muhim maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan bo'lib, jumladan:

- sanoatda texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 2023 yilga nisbatan 2,5 baravarga oshirish;
- oltin ishlab chiqarishni 2024 yilga nisbatan 1,5 baravarga oshirish;
- mis ishlab chiqarishni 3,5 baravarga, shu jumladan mis katodi ishlab chiqarishni 2 baravarga oshirish;

- kumush ishlab chiqarishni 3 baravarga oshirish;
- uran ishlab chiqarishni 3 baravarga oshirish;
- yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmini yiliga 1 million donaga yetkazish, shundan elektromobillar ulushini 200 ming donaga yetkazish.

Mazkur strategik ko'rsatkichlarga erishish ko'p jihatdan yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini samarali amalga oshirishga bog'liq. Shu sababli mamlakatda texnologik hamda infratuzilmaviy xarakterga ega bo'lgan mega investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonlari faol bosqichga kirgan.

Bunday loyihalar qatorida:

- "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan "Yoshlik-I" konini o'zlashtirish loyihasi;

- "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan amalga oshirilayotgan "Muruntov" konini o'zlashtirish" hamda "Nukrakon, Kosmonachi va Oqjetpes konlarida kumush tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish" loyihalarini alohida ta'kidlash mumkin.

Mazkur loyihalar mamlakatning sanoat salohiyatini oshirish, eksport hajmini kengaytirish hamda yangi ish o'rinlari yaratish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mega investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mega investitsiya loyihalarini amalga oshirishda quyidagi asosiy muammolar mavjud:

1. Moliyaviy resurslarning yetishmasligi - yirik kapital talab qiladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun uzoq muddatli va past foizli moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari cheklangan.

2. Loyiha risklarining yuqoriligi - xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi, global bozor kon'yunkturasidagi beqarorlik hamda texnologik risklar investorlar uchun qo'shimcha xavf tug'diradi.

3. Moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligi - ko'plab loyihalar asosan davlat mablag'lari yoki bank kreditlari hisobidan moliyalashtirilmoqda.

4. Loyiha boshqaruvi samaradorligining yetarli darajada emasligi - loyihalarni rejalashtirish, risklarni baholash hamda moliyaviy monitoring tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ham samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda quyidagi moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Kapital bozori instrumentlari - yirik infratuzilma va sanoat loyihalarini moliyalashtirishda korporativ hamda infratuzilmaviy obligatsiyalar chiqarish orqali investorlarning uzoq muddatli mablag'larini jalb qilish mumkin.

2. Xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb qilish - Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlarining imtiyozli kreditlari yirik loyihalarni moliyalashtirishda muhim manba bo'lishi mumkin.

3. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish - infratuzilma hamda sanoat loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini keng joriy etish investitsiya oqimini oshirishga xizmat qiladi.

4. ESG tamoyillariga asoslangan moliyalashtirish - barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan "yashil obligatsiyalar" hamda boshqa barqaror investitsiya instrumentlari orqali yangi investitsiya manbalarini jalb qilish mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ochiqlik va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish siyosati natijasida xalqaro moliya institutlari hamda yirik xorijiy banklarning e'tibori O'zbekiston iqtisodiyotiga ortib bormoqda. Biroq ayrim hollarda yirik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda risklarni baholash, loyiha samaradorligini aniqlash hamda barqaror moliyaviy modelni shakllantirish bilan bog'liq masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, mamlakat yalpi ichki mahsulotining shakllanishida sanoat tarmoqlari, xususan tog'-kon va metallurgiya sohasi muhim o'rin tutadi. Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, "O'zbekneftgaz" hamda "O'zavtosanoat" kabi yirik ishlab chiqarish korxonalari iqtisodiy o'sishning muhim drayverlari hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, mega investitsiya loyihalarini amalga oshirish samaradorligini oshirish, ularni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliya bozorining imkoniyatlaridan keng foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mega investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Shu bois ularni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, kapital bozorini rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan ustuvor maqsadlarga erishishga hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-sonli Farmoni.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi.* - Toshkent, 2023.
3. *Yescombe E.R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance.* - Oxford: Butterworth-Heinemann, 2018.
4. *Fabozzi F., Drake P. Capital Markets, Financial Management and Investment Management.* - New Jersey: Wiley, 2009.
5. *OECD. ESG Investing and Sustainable Finance.* - Paris: OECD Publishing, 2021.

MOLIYA BOZORI INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMINI OSHIRISH STRATEGİYALARI

Nematova Sitora Xurshidovna
Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimini oshirishda moliya bozori infratuzilmasini takomillashtirishning strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Bank sektorini Bazel tamoyillariga moslashtirish, kapital bozori chuqurligini kengaytirish va institutsional muhitni yaxshilash orqali FDI oqimini barqaror oshirish imkoniyatlari asoslab beriladi hamda amaliy takliflar ishlab chiqiladi.